O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [14]
ISSN 2181-7324(Print)

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz
ISSN 3093-8996(Onlayn)

UDK:1(091)-321

Charos G‘ANIYEVA,
Tayanch doktorant, Toshkent davlat transport universiteti, Toshkent, O‘zbekiston
E-mail: gcg1248@mail.ru

Professor, f.f.d R.Umarova taqrizi asosida

EASTERN RENAISSANCE AND THE IMPACT OF FAMILY RELATIONS ON SOCIAL STABILITY

Annotation

In the development of the culture of the Eastern peoples, we can see a great rise in the spiritual life and social enlightenment of society in the 9th-12th centuries, and this development will last for several centuries. During this period, innovations are introduced in the fields of mathematics, medicine, astronomy, and mineralogy. Sharp changes occur in history, philosophy, and philology, which form new progressive ideas. Renaissance means cultural awakening, the development of science and art. The family is a link in society, stability is the law of maintaining the balance of the system. Traditions and values, on the other hand, are the moral, religious, and spiritual rules inherited in society. This article analyzes the development of science during the Eastern Renaissance and the great influence of family relations in society on social stability, the contribution of great thinkers to science.

Key words: Renaissance, family, traditions and values, stability, education, development, science, society

ВОСТОЧНЫЙ РЕНЕССАНС И ВЛИЯНИЕ СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЙ НА СОЦИАЛЬНУЮ СТАБИЛЬНОСТЬ

Аннотация

В развитии культуры восточных народов мы можем видеть большой подъем духовной жизни и социального просвещения общества в IX-XII веках, и это развитие будет длиться несколько столетий. В этот период внедряются новшества в области математики, медицины, астрономии и минералогии. Резкие изменения происходят в истории, философии и филологии, которые формируют новые прогрессивные идеи. Возрождение означает культурное пробуждение, развитие науки и искусства. Семья является связующим звеном в обществе, стабильность является законом поддержания равновесия системы. Традиции и ценности, с другой стороны, являются моральными, религиозными и духовными правилами, унаследованными в обществе. В данной статье анализируется развитие науки в эпоху Восточного Возрождения и большое влияние семейных отношений в обществе на социальную стабильность, вклад великих мыслителей в науку

Ключевые слова: Возрождение, семья, традиции и ценности, стабильность, образование, развитие, наука, общество.

SHARQ RENESSANSI DAVRIDA VA OILAVIY MUNOSABATLARNING IJTIMOIY- BARQARORLIKKA TA‘SIRI

Annotatsiya

Sharq xalqlari madaniyatining rivojlanishida, IX-XII asr jamiyatning ma’naviy hayoti va ijtimoiy dunyoqarashida katta yuksalishni ko‘rishimiz mumkin va bu rivojlanish bir necha asr davom etadi. Ushbu davrda matematika, meditsina, astronomiya, mineralogiya sohalariga yangiliklar kiritiladi. Yangi ilg‘or g‘oyalarni shakllantiradigan tarix, falsafa va filologiyada keskin o‘zgarishlar yuz beradi. Renessans – madaniy uyg‘onish, ilm-fan va san’atning rivojlanishi demakdir. Oila jamiyatning bo‘g‘inidir, barqarorlik tizimning muvozanatini saqlash qonununidir. An’ana va qadriyatlar esa jamiyatda meros qilib o‘tiladigan axloqiy, diniy, ma‘naviy qoidalari hisoblanadi. Mazkur maqola orqali Sharq Renessansi davrida ilm-fanning rivojlanishi va jamiyatda oilaviy munosabatlarning ijtimoiy barqarorlikka katta ta’siri buyuk mutafakkirlarning ilm-fanga qo‘shgan hissasi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Renessans, oila, an’ana va qadriyatlar, barqarorlik ta’lim-tarbiya, rivojlanish, ilm- fan, jamiyat.

Kirish. Sharq Renessansi deb, asosan IX–XII asrlarda Markaziy Osiyo (Movarounnahr), Xuroson, Bag‘dod xalifaligi va boshqa musulmon Sharq hududlarida ilm-fan, madaniyat va falsafaning gullab-yashnagan davriga aytiladi. Bu davrda Buxoro, Samarqand, G‘ijduvon, Xorazm kabi shaharlarda ilmiy maktablar rivojlandi. Mashhur mutafakkirlar: Al-Xorazmiy, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Umar Xayyom va boshqalar. IX–XII asrlarda oila jamiyatning asosiy ijtimoiy hujayrasi sifatida qaraldi. Oila mehnat taqsimotida, mulkni meros qilib o‘tkazishda asosiy institut bo‘lgan. Ahloqiy va diniy qadriyatlar oilada shakllangan. Ilm-fanga, odob-axloqqa bo‘lgan talab ham avvalo oilada o‘rgatilgan Oilaviy munosabatlarning ijtimoiy barqarorlikka ta‘siri. Kuchli oilalar jamiyatning iqtisodiy va siyosiy barqarorligini mustahkamlardi. Qon-qarindoshlik aloqalari mahalliy hokimiyat tizimining mustahkam bo‘lishiga yordam berdi. Aholi o‘rtasidagi birdamlik, yordamlashish, o‘zaro hurmat kabi qadriyatlar oilada shakllandi va keng jamoaga tarqaldi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review) (O‘zbek faylasuf olimlari, O.Fayzullaev Mazkur masalani yoritishda I.M.Mo‘minov, O.F.Fayzullayev, M.M.Xayrullayevlarning asarlaridan foydalanildi. 2000 yilda nashr etilgan “Klassicheskaya nauka Sredney Azii i sovremennaya mirovaya sivilizatsiya”nomli kollektiv monografiya unda Muhammad al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Abu Nasr al-Forobiy, Abu Rayhon al-Beruniy, Mirzo Ulug‘bek singari O‘rta Osiyo olimlarining hozirgi zamon ilm-fani rivojidagi axamiyati va dunyo sivilizatsiyasidagi katta hissasi tahlil etiladi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, ushbu olimlar tomonidan IX-XII asrlarda Markaziy Osiyo mutafakkirlari jahon ilm faniga qo‘shgan hissasi ilmiy-nazariy va tarixiy-falsafiy jihatlari asoslangan. Biroq, faylasuflar ijodida oila masalasining tahlili ilmiy-falsafiy va metodologik jihatlari deyarli o‘rganilmagan. Shu bois, ushbu tadqiqot ishida Sharq

renessansi, oila masalasi ilmiy-psixologik, ijtimoiy-ma’naviy sifatidagi ahamiyati tadqiq etilgan.

Tadqiqotning nazariy metodologik asoslari xususida so‘z borganda M. Xayrullayevning “Uyg‘onish davri va sharq mutafakkirlari”, Farobiyning “ Fozil odamlar shahri”, N.Baratov, X.Aliqulov “O‘rta Osiyo mutafakkirlari axloq haqida” asarlari va shu sohaga doir respublikamizning ko‘plab yetuk olimlarning asarlarini e‘tirof etish zarur. Markaziy Osiyoning taraqqiyparvar mutafakkirlari -Forobiy, Beruniy, Ibn Sino va boshqa allomalarning asarlarini tahlil qilishga katta qiziqish bildirganlar. Ushbu asarlar orqali ishonchli bilim olish usullarini izlashmoqda. Ularning asarlarida yurt ravnaqi, insonning chinakam baxt-saodati, uning erkinligi va hunarmandchilikni anglashi ilm-fanning gullab-yashnashi, jamiyatni idrok etishda muhim ahamiyat kasb etadi..

Tahlillar va natijalar. Al-Xorazmiy, Farg‘oniy, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Umar Xayyom, Narshahiy, Battoniy, Marvaziy, Mahmud Koshg‘ariy, Mas’udiy, Bayhokiy, Qiftiy, YA’qub, Abul Vafo, Ibn Rushd, Zamahshariy, Faryobiy, Ulug‘bek, Koshiy, Ali Qushchi, Ibn Xaldun kabi o‘rta asr madaniyatining buyuk darg‘alari va ustunlari hisoblanadi.

Markaziy Osiyoning taraqqiyparvar mutafakkirlari Al-Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino va boshqalar inson bilish jarayonini tahlil qilishga katta qiziqish bildirganlar; ishonchli bilim olish usullarini izlash. Ularning asarlarida yurt ravnaqi, insonning chinakam baxt-saodati, uning erkinligi va hunarmandchilikni anglashi ilm-fanninggullab-yashnashi, ya‘ni tevarak-atrofni idrok etishdagi muvaffaqiyat bilan belgilanadi, degan g‘oya ifodalangan.

Farobiyning “Fozil odamlar shahri” asarida jamiyatning ijtimoiy ahvolini yaxshilash va axloqli odam bo‘la olishi uchun o‘zida 12 ta tug‘ma hislatni o‘zida mujassamlashtirishi kerak.

Birinchidan, bunday odamning barcha organlari shu darajada mukammal taraqqiy etgan bo‘lishi zarurki, u bu organlari bilan bajarmoqchi bo‘lgan barcha ishlarini osonlik bilan amalga oshira olsin. Ikkinchidan, barcha masalani, muhokama va mulohazani tezda va to‘g‘ri tushuna oladigan, uning ma‘nosini anglay oladigan. Uchinchidan, xotirasi juda baquvvat bo‘lsin, ko‘rgan-eshitgan, sezgan narsalarni birortasini ham esidan chiqarmay, yodida saqlab qoladiga bo‘lsin. To‘rtinchidan, zehn shu darajada tez va o‘tkir bo‘lsinki, biror narasaning alomatini sezishi bilan, bu alomat nimani bildirishligini tezda bilib olsin. Beshinchidan, so‘zlari aniq bo‘lsin, fikrini va aytmoqchi bo‘lgan mulohazalarini ravon va ravshan ifoda eta olsin. Oltinchidan, bilish va o‘qishga muhabbat bo‘lsin, o‘rganmoqchi bo‘lgan bilimini chalkashlik sezmasdan osonlik bilan o‘zlashtira olsin. Yettinchidan, ovqatlanishda, ichimlik iste‘mol qilishda ochko‘z bo‘lmasin. Sakkizinchidan, haqiqatni va haqiqat tarafdorlarini sevadigan bo‘lsin, yolg‘on va yolg‘onchilarga nafrat bilan qaraydigan bo‘lsin. To‘qqizinchidan, ruhi g‘ururli va o‘z vijdonini qadrlaydigan bo‘lsin, uning ruhi o‘z tabiati bilan past ishlardan yuqori va olijanob ishlarga intiladigan bo‘lsin. O‘ninchidan, mol-dunyo shunga o‘xshash buyumlarga mukkasidan ketmasligi kerak. O‘n birinchidan, o‘z adolatiga, vijdoniga ega bo‘lsin adolatni sevadigan va adolat uchun kurashadigan, adolatsizlik, jabr-zulm o‘tkazadigan o‘z oilasi va boshqalarga adolatli bo‘lsin, yaxshi deb hisoblaydigan narsalarni boshqalarga ham taqdim etsin, adolatsizlik natijalarini yo‘qotadigan, ularga yo‘l qo‘ymaydigan bo‘lsin. O‘n ikkinchidan, zarur narsalarni amalga oshirishda qat‘iyatli bo‘lish, qo‘rqmas va jasur bo‘lmog‘i darkor. Kishi axloqining shakllanishida, ayniqsa, oila tashqi muhit va tevarak-atrofdagi odamlarning ta’siri kuchli bo‘ladi. Tashqi muhitning ta’sirida bola faqat voqelikni idrok etish bilan chegaralanib qolmasdan, balki yaxshi yoki yomon xulqni ham egallaydi. Shuning uchun ham mutafakkirlar bola tarbiyasida ehtiyot bo‘lish kerakligini uqtiradilar.

Mutafakkirlar bolani kamolga yetkazishda oila, maktab va kollektivning rolini alohida ta’kidladilar. Ayniqsa, ota-onalar bolaning xulqi yaxshi bo‘li-shi uchun ko‘proq qayg‘urishi, buzilib yomon yo‘llarga kirib ketishiga yo‘l qo‘ymasligi lozim. Shuning uchun birinchi navbatda bola o‘zining yaramas qiliqlaridan uyalishi lozim. Ota-onalar bolani yoshlikdan mehnat bilan shug‘ullanishga, kasb-hunar egallashga, qiyinchi-lik va muhtojlikka chidashga o‘rgatib borishi kerak.

Renessans davro mazmuni, haqidagi bilim doirasi keng. Akademik N.P.Konrad Renessansning umumiy belgilari va xususan, Sharq renessansi to‘g‘risida shunday deydi; Uy’onish davri Italiya xalqri tarixiga ta’alluqli bo‘libgina qolmasa kerak, ya’ni u inson tarixiy hayotining “ xususiy holati” bo‘lmasa kerak. Bu o‘zining qadimgi va O‘rta asr tarixiga ega bo‘lgan xalqlar taraqqiyotining bosqichlaridan biridir. Uyg‘onish davri ularda ilk o‘rta asr bilan so‘nggi o‘rta asr chegarasida yotuvchi maxsus tarixiy davrni, ya’ni feodalizm davrining bosqichlaridan birini tashkil etadi. Eron, O‘rta Osiyo, Shimoliy-g‘arbiy Hindiston tarixida IX-XII asrlarni, shunday davr deb hisoblash mumkin. Bu davr arafasidagi tarixiy voqelik ijtimoiy-hayot, madaniyat avvalgi davrlarda yaratilgan prinsiplar asosida rivojlana olmasligini ko‘rsatdi. Gap bu prinsiplarnining yomonligida emas balki ularning ma’lum shaklda qotib qolganligida, ya’ni inson fikrini bo‘gib qo‘yganligidadir.

Xulosalar. XI–XII asrlarda Markaziy Osiyo (xususan, Movarounnahr va Xuroson) hududida yuz bergan madaniy-ma’rifiy uyg‘onish davridir. Bu davrda ilm-fan, ma’rifat, odob-axloq qadriyatlari yuksak baholandi. Sharq uyg‘onish davrida oilaga juda katta ahamiyat berilgan. Oila jamiyatning eng asosiy birligi sifatida qaraldi.Oilada o‘zaro hurmat, katta va kichikka bo‘lgan e’tibor, mehr-oqibat qadrlari shakllandi. Ayollar oila tarbiyasida muhim o‘rin tutgan, ko‘p olimlar va adiblar tarbiyani onaga bog‘lashgan. Oilada ahloqiy qadriyatlarni mustahkamladi. Ijtimoiy tartib va birdamlikni ta’minladi. Ilm-fan va ma’rifatning oiladan boshlanishini targ‘ib qildi. Yoshlarni barkamol inson sifatida tarbiyalashga zamin yaratdi. Sharq Renessansi qadriyatlari oilaviy qadriyatlar kuchli bo‘lgan jamiyatlarda jinoyatchilik past, o‘zaro mehr-oqibat yuqori, ijtimoiy barqarorlik mustahkam bo‘ladi.

Sharq Renessansi oilaviy qadriyatlarni mustahkamlab, ijtimoiy barqarorlikning poydevorini yaratdi. Bugungi kunda ham ushbu tarixiy merosdan oqilona foydalanish, oilani qadrlash va yosh avlodni ma’naviy barkamol qilib tarbiyalash ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashning asosiy omillaridan biridir.Inson yashar ekan, doim ta‘lim va tarbiyaga ehtiyoj sezadi. Ta‘lim va tarbiya esa inson umrining oxirigacha davom etadigan jarayon bo‘lib inson umrining oxirigacha o‘rganadi, degan naql asosida tarbiyalanib, doimiy ravishda rivojlanib, takomillashib boradi va insonni har doim vatanparlikka undaydi.

ADABIYOTLAR

1. Xayrullayev M. Uyg‘onish davri va sharq mutafakkiri. «O‘zbekiston» nashriyoti-Toshkent-1971. B-10.
2. Al-Forobiy. Ikki faylasuf: ilohiy Aflotun va Aristotel qarashlarining umumiyligi haqida. Falsafiy risolalarga qarang. Olma-Ota, 1970, s. 78.
3. Xayrullayev M. Uyg‘onish davri va sharq mutafakkiri. «O‘zbekiston» nashriyoti-Toshkent-1971. B-302-303

4. Saqlanayotgan qo‘lyozma, inv. 10626, 156-varaq. 35 Merosi islom. Fors tilida. Tehron, 1325 hijriy yili, 270-bet
5. Ramatov, J., & Umarova, R. (2021). Central Asia in Ix-xii Centuries: Socio-political Situation, Spiritual and Cultural Development. Academicia Globe: Inderscience Research, 2(04), 148-151.
6. Ramatov, J., Umarova, R., Baratov, R., Jurabayev, N., & Artikova, B. (2022, June). Constructive and optimal solutions for the formation of a stable ecological situation in the Aral Sea region of Uzbekistan. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2432, No. 1, p. 030113). AIP Publishing LLC.
7. Умарова, Р. Ш. (2020). Роль натурфилософии Абу Райхана Бируни в развитии современной науки. Экономика и социум, (3), 685-688.
8. Ramatov, J., & Umarova, R. (2020). Theoretical and ideological sources of beruni's philosophical views. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 10(11), 1974-1980
9. Муминов И.М. Из истории развития общественно-политической мысли в Узбекистане. - Ташкент, 1977.
10. Файзуллаев А.Ф. Научное творчество Мухаммада ал-Хорезми. -Ташкент, 1983.
11. Классическая наука Средней Азии и современная мировая цивилизация / Под. ред. П.К. Хабибуллаева и 1А.Ф. Файзуллаева. Ташкент. 2000.
12. Абдухалимов Б. “Байт ал-ҳикма” ва Ўрта Осиё олимларининг Бағдоддаги илмий фаолияти. //“Тошкент ислом университети” нашриёт-матбаа бирлашмаси. -Тошкент, 2004. -Б. 24.